

## INGLIZ TILIDA YOZMA NUTQNI O‘QITISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Raximova Go‘zal Bagriddinovna

O‘zDJTU, Ingliz tili funksional leksikasi kafedrası

o‘qituvchisi va PhD mustaqil tadqiqotchisi

[guzal.rahimova.86@mail.ru](mailto:guzal.rahimova.86@mail.ru)

**ANNOTATSIYA.** Jahon ta‘lim tizimida chet tillarni o‘qitish sifatiga va uning mazmuniga ta‘sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillar, samarali ta‘lim muhitini yaratishga xizmat qiluvchi zamonaviy AKTlari, shu jumladan, ulardan maqsadli hamda manzilli foydalanish kontekstini izchil tahlil va tasnif qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlarga ehtiyoj ortmoqda. Ayniqsa, bu borada amalda oliy ta‘limning chet tillarni o‘rgatish tizimida uch – oflayn (an‘anaviy), onlayn (masofaviy) va mustaqil shakllarini o‘zida uyg‘unlashtiruvchi blended shaklidan foydalanish zaruratiga ehtiyoj kuchaymoqda. Ilg‘or xorijiy tajribalarga ko‘ra, chet tillarni o‘qitishda blended ta‘lim shaklining tatbiqiga doir masalalar AQShning Florida, Minnesota, Virjiniya, Kolorado universitetlari, Ostin jamoat kolleji, Onlayn ta‘lim konsortsiumi (The Online Learning Consortium (OLC)) hamjamiyati, Slovakiyadagi Kosice texnika universiteti, Finlandiyadagi Yuvyaskyulya universiteti, Rossiya Federatsiyasidagi Moskva davlat pedagogika universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti va Malayziyadagi Malaya universitetida olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Shu o‘rinda, oliy ta‘limda bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarini tayyorlashda produktiv nutq faoliyati turlarini, ayniqsa, yozuv kompetensiyasini o‘qitish amaliyotida kutilgan natijalarga erishish, sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishni xalqaro ta‘lim dasturlari talablari asosida rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, birinchi (ona) tilda yozish, ikkinchi tilda yozish, chet tilida yozish, yozuv kompetensiyasi, yozuv.

**KIRISH.** Dunyo amaliyotida ingliz tilini chet til sifatida o‘rgatish jarayonida yozuv kompetensiyasini o‘qitish va uni takomillashtirish yondashuvlari, metodlari va texnologiyalari tatbiqiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha ta‘lim bosqichlari singari oliy ta‘lim tizimida ham chet tillarini, xususan ingliz tilini chuqur o‘rgatishga keng ko‘lamda e‘tibor qaratilib, unda uzluksiz hamda uzviy ta‘lim jarayonlarini samarali tashkil qilishdagi barcha zarur vositalarni safarbar etish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umuman, yozuvning amaldagi ahamiyati uning bo‘lajak ingliz tili mutaxassislari sifatida talabalarning asosiy nutq faoliyat turlari doirasida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tizimli mustahkamlanishidagi muhim roli bilan belgilanadi. Jumladan, Prezidentimiz tomonidan “zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarini, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutishi”<sup>1</sup> alohida e‘tirof etildi. Bunda chet tillarining o‘quv jarayonlariga kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, talabalarda mustaqil ta‘lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish, xalqaro ta‘lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallaridan foydalanish kabi muhim vazifalar belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 17-avgustdagi “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. Elektron resurs: <https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi VMQ 34-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 3-oktabrdagi VMQ 559-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu ilmiy maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

**ASOSIY QISM.** Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “*kompetensiya*” atamasi ilk bor 1965-yilda amerikalik tilshunos N.Xomskiy tomonidan til tizimi, lingvistik belgilar, leksik va grammatik shakllarga oid bilimlarga nisbatan qo‘llanildi, ammo u bilimlardan haqiqiy muloqot sharoitida foydalanishni nazarda tutmadi, natijada ayni vaziyat amalda “*leksik kompetensiya*” atamasining yaratilishini taqozo qildi. XX asrning 80- 90 yillaridan beri “*kompetensiya*” va “*kompetentlik*” atamaları oliy ta’lim muhitida ko‘pchilikka tanish bo‘lib, ulardan ta’lim standartlarini shakllantirishda faol foydalanilmoqda. Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari xususida turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik olimlar (1) *lingvistik* (linguistic), *grammatik* yoki *rasmiy* (grammatical competence), (2) *ijtimoiy lingvistik* (sociolinguistic competence), (3) *ijtimoiy-madaniy* (sociocultural competence) va (4) *diskursiv kompetensiyani* (discourse competence) asosiy subkompetensiyalar sifatida ko‘rsatib o‘tishgan. Mazkur komponentlar og‘zaki va yozma nutqning samarali va kommunikativ maqsadlarga ko‘ra amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Darhaqiqat, F.Alimov ham o‘z tadqiqot ishida talabalarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirishda mazkur komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olish ijobiy natijalarga erishishda dolzarb ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tgan. O‘z navbatida, M.Vyatyutnev o‘z ilmiy izlanishlarida nutqni hosil qilish va idrok qilish jarayonlariga asoslangan ikki kompetensiyani – *produktiv* (gapirish va yozish) va *retseptiv* (o‘qish va tinglab tushunish) turlarni tasniflab berdi.<sup>2</sup>Xususan, bu jarayonda nutq faoliyatining produktiv turi sifatida yozuvning chet tili ta’limidagi roli u yaratadigan bir qator dolzarb ahamiyatga molik imkoniyatlarga bevosita bog‘liq. Bundan tashqari, yozuv og‘zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo‘shimcha aloqa vositasi bo‘lsa-da, unga qaraganda ko‘p afzalliklarga egadir. Zero, tilning asosiy vazifasi – kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Amerikalik tilshunos Sh.Polio bugungi kunda talabalarning chet tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng samarali manbasini yaratish uchun tadrijiy va batafsil eksperimental tadqiqotlar olib borish lozim deb hisoblaydi.<sup>3</sup>Uning fikrlariga qo‘shilgan holda qayd etishimiz joizki, talabalarning yozuv kompetensiyasini u yoki bu yondashuv yordamida takomillashtirish mumkin deya to‘liq

<sup>2</sup> Вятютнев М.Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку в зарубежных школах // Русский язык за рубежом. – 1977. – № 6. – С. 40.

<sup>3</sup> Polio Ch. Second language writing development: A research agenda // Language Teaching. – 2017. – № 50(2). – p.269.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>


ishonch bilan ayta olmaymiz. M.Tatarinovaning ta'kidlashicha, yozishni o'rganish nafaqat grafikani va imloni, balki eng avvalo yozma nutq faoliyatini o'rganishni anglatadi, ya'ni fikrlarni shakllantirish va ifodalash jarayoni hamda yakuniy natija sifatida yozuvning turli xil kommunikativ nutq janrlari va turlariga oid matnlarni sayqallashdan iboratdir. L.Kaplichning so'zlariga ko'ra esa, yozuv kompetensiyasi – bu yaxlit bir tizim bo'lib, uning tuzilishi bitta hodisani, ya'ni nutq aloqasi jarayonini tavsiflovchi o'zaro bog'liq elementlar bilan ifodalanadi. Binobarin, ayni vaqtda chet tillarni o'qitish muayyan bir yangi o'rganilayotgan tilda yozishni o'rganishga o'qitish va o'quv dasturlarining ta'sirini o'rganish, shuningdek, chet tilida talabalarning yozma nutqini rivojlantirish yo'llari va trayektoriyalarini aniqlashning asosiy konteksti bo'lib qolmoqda. G'arb olimlarining yozma nutqni o'qitishda katta tajribaga egaligi sababli ularda samarali (ijodiy) yozish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish sifatli ta'lim olishda zaruriy shart sifatida e'tirof etiladi. Masalan, insho yozish xoriydagi har qanday OTMga o'qishga kirishdagi eng asosiy talablardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, bu holatda yozma nutqni o'rganish ta'lim vositasi emas, balki ta'lim maqsadi hisoblanadi. O'z o'rnida quyidagi muhim jihatni keltirib o'tishimiz lozim, ya'ni ta'limida “birinchi (ona) tilda yozish” (“*first language writing*”), “ikkinchi tilda yozish” (“*second language writing*”) va “chet tilida yozish” (“*foreign language writing*”) kabi tushunchalar mavjud, ular orasidagi farqlar hamda o'ziga xosliklarni ingliz tili misolida quyidagicha izohlashimiz mumkin:

- *Birinchi (ona) tilda yozish* ona tilini va yozish ko'nikmalarini tabiiy ravishda o'zlashtirgan ingliz tilida so'zlashuvchilarga tegishli, ya'ni ular yashayotgan muhit ingliz tili bilan to'laqonli bog'liqdir. Shunga ko'ra, ushbu guruh talabalari uchun badiiy va badiiy bo'lmagan matnlarning keng janrlarini muhokama qilish ularga qiyinchilik tug'dirmaydi.

- *Ikkinchi tilda yozish* tushunchasi esa ingliz tili asosiy til bo'lgan yoki faqat ma'lum jamoa guruhlarining tili bo'lgan mamlakatlarda yashovchi, ya'ni shu omil tufayli ingliz tilini o'rganishi kerak bo'lgan talabalarga oiddir va buning asosida talabalarga yozish malakalarini o'rgatish maqsadida butun yozuv mashg'ulotlari shakllantiriladi.

- *Chet tilida yozish* bo'lsa ingliz tilida yozishni o'rganishi kerak bo'lgan, ya'ni ingliz tili muntazam so'zlashilmaydigan yoki jamiyat tili sifatida yozilmaydigan mamlakatlarda yashovchi talabalarga tegishli bo'lgan kontekstda qo'llaniladi.

Chet tili ta'limidagi islohotlar va ilg'or tajribalar asnosida 20-asrning 2- yarmida ingliz tili yozuvini o'rgatishda bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ya'ni 1970-yillargacha yozuv mahsulot, keyinchalik esa jarayon va nihoyat, ijtimoiy aloqa vositasi sifatida e'tirof etildi – bunda talabalar turli kontekstda va turli maqsadlar uchun yozuvni o'rgana boshladilar. Xususan, ingliz tilining chet tili sifatidagi muhiti yozuvning takomillashtiriluvchi tabiatiga misol bo'la oladi va undagi talabalarning yozish ko'nikmasiga nafaqat ularning ona tili, balki ular yozishni o'rganuvchi ta'lim mazmuni ham ta'sir ko'rsatadi. Natijada ushbu ijtimoiy va madaniy xarakterga ega bo'lgan kontekst talabalarning yozma nutqni tayyorlash va yaratish usullariga ta'sir qiluvchi lingvistik, matn hamda yozuvga oid bilimlarini (masalan, auditoriyaning qarashlari va yozish maqsadlari kabi) taqdim etishlariga xizmat qiladi. Bu borada amerikalik olimlar U.Greyb va R.B. Kaplan o'z ilmiy izlanishlari doirasida yozuv kompetensiyasining dastlabki modelini ishlab chiqishdi. (1.1-rasmga qarang):



1.1-rasm. Yozuv kompetensiyasi modeli

Mazkur model ham chet tili, ham ona tilida yozma matn yaratish uchun zarur bo'lgan barcha parametrlarga javob beradi: fikrni moddiy ifodalash vositasi sifatida til kodini bilish; yozma xabarni vaziyat, muloqot sohasi talablariga adekvat tarzda kompozitsion-semantik yaxlitlikka (diskurs) ko'ra tashkil etish qobiliyati kabi. Biroq, A.Kobisheva o'z tadqiqotida undagi muhim kamchilik sifatida uning faqat o'rganilayotgan muhitga to'g'ridan-to'g'ri singib ketishi va haqiqiy madaniy sharoitda esa faqatgina yozuv kompetensiyasini shakllantirish shartlarinigina qondira olishida deb ko'rsatdi. Natijada ayni modelga madaniyatlararo komponentni qo'shishni, ya'ni shaxsning nafaqat yozma matn orqali chet tilida muloqot qila olish, balki samarali madaniyatlararo faoliyat olib bora olish qobiliyatini muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlashni o'zida aks ettiruvchi quyidagi yangi bir modelni taklif qildi.<sup>4</sup>(1.2-rasmga qarang):




1.2-rasm. Madaniyatlararo yozuv kompetensiyasi modeli (MYKM)

<sup>4</sup> Кобышева А.С. Методика обучения письменной речи как компоненту межкультурной компетенции лингвиста-преподавателя: Дисс канд. пед.наук. – Ставрополь, 2009. – 60 с.

S.Musulbesning qayd etishicha, talabalarning yozuv kompetensiyasini takomillashtirish modeli umuman boshqa turdagi kompetensiyalar bilan o‘zaro integratsiyani ilgari suradi, ya’ni u yozma muloqot sohasida argumentativ nutqni o‘rgatish bilan bog‘liq holda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya tarkibini aniqlashda yuzaga chiquvchi kompetensiyalar nomenklaturasini ham o‘zida mujassamlashtirishi lozim.<sup>5</sup>(1.3-rasmga qarang):

O‘z o‘rnida shuni ta’kidlashimiz joizki, “yozuv” tushunchasi ko‘p ma’nodir, xususan, mazkur tushuncha orqali quyidagi ma’nolar tushuniladi: a) nutq faoliyatining poduktiv turi; b) grafik belgilar vositasida nutqni aniqlashtirish (fiksatsiyalash) tizimi; d) yozma nutq turlaridan biri – norasmiy va rasmiy xat (matn). Shuningdek, u ham yozma muloqot shakllaridan biri, ham yozuv texnikasi bo‘lib, jumladan, grafika, xattotlik, imlo va tinish belgilarini o‘z ichiga oladi, ya’ni texnologik, protsessual jihatlariga egadir. Xususan, quyidagi jadvalda mahalliy va



1.3-rasm. Yozuv kompetensiyasining strukturasi

xorij olimlari tomonidan “yozuv” tushunchasiga berilgan ta’riflardan namunalar keltirdik(1.1-jadvalga qarang

1.1-jadval.

“Yozuv” tushunchasiga oid ta’riflar

Manba	Ta’rif
<i>O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi</i>	“muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi”
<i>O‘zbek tilining izohli lug‘ati</i>	“(1) fe’l harakat nomi; (2) muayyan bir tilda qabul qilingan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi; alifbo; (3) grafik belgilarning tasviri, harflar; (4) yozilgan narsa, matn, xat; (5) uyga yozish uchun berilgan vazifa”
<i>X.A. Axmadjonov</i>	“madaniyatning eng muhim qismi va ta’limning ajralmas komponenti, shu bilan birga, talabalar rivojlanishining eng muhim omilidir. U fikrlarni tartibga solishning o‘ziga xos vositasi, axborotni saqlashning ishonchli uslubi va usuli hamdir” [

<sup>5</sup> Мусульбес С.Н. Обучение аргументирующему дискурсу в сфере письменного общения: Дисс. пед. наук. – Москва, 2005. – 117с.

<i>A.I. Ivanchenko</i>	“nutq faoliyatining mahsuldor turlariga tegishli bo‘lib, axborotni yozma ravishda uzatish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab fikrlash jarayonidir”
<i>L.P. Solonsova</i>	“bu yozma matnni yaratish va uni fiksatsiya qilish (sayqallash) bilan bog‘liq bo‘lgan samarali analitik va sintetik faoliyat”
<i>S.L. Bukovskiy A.N. Shukin</i>	“tilda qabul qilingan yozuv tizimi (grafik belgilar) yordamida fikrni ifodalashni ta‘minlovchi samarali nutq faoliyati turi”
<i>M.F. Patel M.J. Praveen</i>	“til tovushlarini vizual belgilar orqali ifodalovchi til xatti-harakatlarining bir turi; bu til o‘rganishning muhim xususiyatidir, chunki u so‘z boyligi, imlo va jumalarni mustahkamlashda juda yaxshi vositadir”
<i>D.Schmandt-Besserat E.Michael</i>	“bu ma‘lum bir tilning birliklarini ifodalovchi grafik belgilar tizimi. Aks ettirilishi kerak bo‘lgan birliklar (masalan, alohida tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘zlarning qismlari yoki har uchlasining kombinatsiyasi) tilning tuzilishiga, ushbu tizimdan foydalanuvchi jamiyatning ehtiyojlari va an‘analariga, shuningdek, inson idrokining imkoniyatlariga bog‘liqdir”

Demak, “yozuv” tushunchasi faqat yozma matnni emas, balki tilning fikrlash, tuzish va kodlash harakatlarini ham anglatib, ular ijtimoiy-madaniy kontekstdagi diskursiv o‘zaro ta’sirlarni ham o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, yozuv – bu matn, kompozitsiya va ijtimoiy qurilishdir. Matnni tahlil qilish, yozish jarayoni va yozishga ijtimoiy konstruktivistik qarash o‘rtasidagi bu uch tomonlama farq chet tilida yozishni o‘rganishda olingan asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatishga va ularning o‘rganish bilan bog‘liq chegaralarini belgilab olishda muhim rol o‘ynaydi. F.Alimovning mazkur masalada bildirgan fikriga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “yozuv” va “yozma nutq” tushunchalariga nisbatan differensial yondashuvning tatbiqi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yozuv o‘zida bir qator sifatlar (grafik, orfografik belgilar va husnixat)ni aks ettirsa, yozma nutq kommunikativ vazifani o‘z ichiga olgan mikro hamda makro matnlardan iboratdir. Chet til o‘qitish metodikasida yozuvga oid ikki tushuncha o‘zaro ajralib turadi, ya’ni *yozish texnikasi* va *yozish ko‘nikmasi*. Jumladan, yozish texnikalari butun yozuv mahorati asosida yotadi va o‘rganilayotgan tilda yozishni texnik jihatdan mumkin qiladi. Misol uchun, yozish grafik, talaffuz, lug‘at, grammatika/sintaksis, punktuatsiya va stilistik kabi asosiy texnikalardan iborat. Agar texnikalar ma‘lum bir nutq jamoasida mavjud bo‘lgan lingvistik, ijtimoiy va madaniy me‘yorlar nuqtayi nazaridan yozishni texnik jihatdan amalga oshiruvchi va moslashtiruvchi vosita bo‘lsa, yozish ko‘nikmalari yozuvchiga o‘rganilayotgan til madaniyati kontekstida yozma shaklda muloqot qilish jarayonida ko‘zlagan kommunikativ maqsadlariga erishishga imkoniyat yaratuvchi vosita hisoblanadi. O‘z navbatida, ko‘nikmalarning ikki asosiy turi xususida mazkur sohadagi ilmiy adabiyotlarda shunday so‘z yuritilgan: (1) o‘rganilayotgan tilning nutq jamoasiga maqbul tarzda muallifning o‘z fikrlarini yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalari; (2) yozma nutq janrlari bo‘yicha yaratilgan matnlarni formatlash, ya’ni o‘rganilayotgan tilning yozma nutq qonun-qoidalariga moslashtirish ko‘nikmalari. Shuningdek, H.D. Braun va H.Li ham o‘z ilmiy izlanishlarining natijalariga ko‘ra yozma nutq janrlarini yaratishda bo‘lajak ingliz tili

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

mutaxassislari o'zlashtirishi lozim bo'lgan ko'nikmalarni 2 asosiy guruhga, ya'ni mikro va makro ko'nikmalarga ajratishni taklif qilishdi:

▪ *Mikro ko'nikmalar:* (1) ingliz tilining grafema va orfografik modellarini yaratish; (2) maqsadga mos keladigan samarali tezlikda yozish; (3) muvofiq shakldagi so'zlar guruhini yarata olish va tegishli so'z tartibi qoliplaridan foydalanish; (4) muvofiq shakldagi grammatik tizimlar (masalan, zamon, kelishik, ko'plik), qoliplar va qoidalardan foydalanish; (5) ma'lum bir ma'noni turli grammatik shakllarda ifodalash.

▪ *Makro ko'nikmalar:* (1) yozma nutqda bog'lovchi vositalardan foydalanish;

(2) yozma nutqning ritorik shakllari va tartib-qoidalaridan foydalanish; (3) yozma matnlarning kommunikativ funksiyalarini shakl va maqsadga muvofiq to'g'ri bajarish; (4) hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorliklarni ifodalash hamda asosiy g'oya, qo'llab-quvvatlovchi g'oya, yangi ma'lumot, berilgan ma'lumot, umumlashtirish va misol keltirish kabi munosabatlarni xabar qilish; (5) yozuv jarayonida to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ma'nolarni farqlash; (6) yozma matn kontekstida madaniyatga xos havolalarni to'g'ri ifodalash; (7) yozma nutqda o'quvchilar talqinini to'g'ri baholash, oldindan yozish texnikasidan foydalanish, birinchi qoralamalarda ravon yozish, parafraz va sinonimlardan foydalanish, tengdoshlar va professor-o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini olish, qayta ko'rib chiqish va tahrir qilishda fikr-mulohazalardan foydalanish kabi yozuv strategiyalarining to'plamini ishlab chiqish va amalda qo'llash.<sup>6</sup> Rus olimi S.Bukovskiy esa yozish ko'nikmalari sifatida quyidagilarni keltirdi: (1) matnning turli janrlarini yaratish; (2) muallif o'z nutqiy faoliyatini tashkil etish maqsadida o'quvga oid yozishmalarni olib borish; (3) yozma matnda argumentlar va emotsional-baholovchi lingvistik vositalardan foydalangan holda mulohazalarni ifodalash, voqea va faktlarni sharhlash; (4) o'qilgan/tinglangan matnning asosiy g'oyasini shakllantirish; (5) ikkinchi darajali matnlarni (referat, annotatsiya, taqriz, rezyume) yaratish va (6) har qanday pozitsiyani isbotlash, dalillarni jalb qilgan holda faktlarni baholash.<sup>7</sup>Umuman olganda, ingliz tilida yozish talab qilinadigan barcha akademik vaziyatlarda talabalar o'z fikrlarini aniq va tashkiliy tarzda bayon eta olishlari lozim. Bunda esa talabalarning (a) bitta asosiy g'oya va uni qo'llab-quvvatlovchi bir nechta asosiy fikrlarni aniqlab olish; (b) inshoni qanday tashkil qilishni rejalashtirish (masalan, reja (*outline*) asosida); (d) sabablar, misollar va tafsilotlardan foydalangan holda inshoni puxta ishlab chiqish; (e) ma'lumotlarni uyushgan holda taqdim etish;

(f) g'oyalarni bog'lash va o'quvchiga g'oyalar oqimini tushunishga yordam berish uchun samarali bog'lovchi so'zlardan (o'tish iboralaridan (*transitional phrases*)) foydalanish; (g) fikrlarni samarali ifodalash uchun grammatik diapazon va lug'atdan (*vocabulary*) foydalanish; (h) grammatika va lug'atdan to'g'ri foydalanish; idiomatik iboralarni to'g'ri qo'llash; (i) imlo, tinish belgilari va tartib qoidalariga rioya qilish, malakalarini tizimli ravishda o'rganib borishlari maqsadga muvofiqdir. D.Nunan ta'kidlaganidek, yozuv – bu g'oyalar hamda ularni qanday qilib yaxshi yozuvda (matn) ifodalash haqida fikr yuritish va fikrlarni aniq bayonotlar va paragraflar bilan tartibga solish jarayoni hisoblanadi.<sup>8</sup>Jumladan, F.Krem va M.Lining so'zlariga ko'ra esa, yozuv so'zlardan iborat bo'lib, bu so'zlar o'ziga xos shakllarga qo'shilib, jumlar hosil qiladi, so'ngra ular paragraflarga birlashtiriladi. Zero, Y.V. Kolbishevaning fikriga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, yozuv jarayonida fikrni tuzish va mantiqiy

<sup>6</sup> Brown H.D., Lee H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy (4th ed.). – New-York: Longman, 2015. – 437 p.

<sup>7</sup> Буковский С.Л., Щукин А.Н. История методов обучения иностранным языкам в схемах и таблицах: Иллюстративно-графический курс: учебное пособие. – Москва: Флинта, 2020. – 232 с.

<sup>8</sup> Nunan D. Practical English language teaching. – Singapore: McGraw-Hill, 2003. – 342 p.

qurish, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni aniqlash, tezislarni ochiqlash, dalillar va xulosalarni shakllantirish uchun javobgar bo'lgan aqliy jarayonlar faollashadi.<sup>9</sup>

J.B. Xiton yozuv malakalari murakkab va ba'zan ularni o'rgatish qiyin bo'lib, bo'lajak ingliz tili mutaxassislarini sifatida talabalar mazkur masalada nafaqat grammatika va ritorikani, balki konseptual va to'g'ri qaror qabul qila olish elementlarini ham o'zlashtirishlari lozim, deb hisoblaydi va ushbu masala yuzasidan 5 asosiy komponent yoki muhim ko'nikma turlarini o'z tadqiqotlarida keltirdi: (1) *tildan foydalanish ko'nikmalari* – to'g'ri va mos bo'lgan jummalarni yoza olish qobiliyati; (2) *mexanika ko'nikmalari* – yozma tilning qonun-qoidalariga amal qilgan holda ushbu jummalardan to'g'ri foydalana olish qobiliyati, misol uchun, punktuatsiya va talaffuzga oid qoidalar; (3) *mazmunni qayta ishlash* – matnga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni chiqarib tashlagan holda ijodiy fikrlash va farazlarni rivojlantirish qobiliyati; (4) *stilistik ko'nikmalar* – jumlar va paragraflarni mohirona boshqarish va tildan samarali foydalana olish qobiliyati; (5) *to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalari* – ma'lum bir auditoriyani ko'zlagan holda muayyan bir maqsadga muvofiq yoza olish qobiliyati va tegishli ma'lumotlarni tanlash, tashkil etish va tartibga solish qobiliyati.<sup>10</sup> Yozuv madaniy xilma-xillik dunyosi kontekstida madaniy o'ziga xoslikni aniqlash, ifodalash va muhokama qilish vositasidir va yozma til ko'plab guruhlar tomonidan madaniy farqlanishni aks ettiruvchi yoki saqlovchi vosita sifatida talqin etiladi. Vaholanki, yozuv kompetensiyasini samarali o'qitishda o'qituvchi dars mashg'ulotlarida ishtirok etuvchi ko'nikmalar va jarayonlarni aniq bilishi kerak. Bu nuqtayi nazar ayni kompetensiyaga tug'ma qobiliyat yoki beixtiyor bajariladigan odat sifatida emas, balki tartib-qoida va mehnat bilan erishilishi kerak bo'lgan kasb, malaka sifatida qarash kerakligini bevosita tasdiqlaydi. Yozuv kompetensiyasini o'qitishning har bir bosqichida ma'lum bir maqsadga e'tibor qaratiladi. Masalan, chet tilida yozuv kompetensiyasini o'zlashtirishning dastlabki bosqichida talabalar yaratilayotgan matn tarkibidagi sintaktik tuzilmalarning murakkabligini oshirishga e'tibor qaratishsa, jarayonning yakuniy, ya'ni yuqori darajasida yozma nutqning asosan uslub va usuli ustida ish olib borishga harakat qilishadi. J.B. Xiton ta'kidlaganidek, mazkur jarayonda talabalarining yuqoridagi yozma nutq janrlarini ravon, to'g'ri va o'rinli tarzda yarata olishlarida o'qituvchilar tomonidan besh asosiy aspektga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Mazmun (*Content*) – g'oyalarni yaratish va yordamchi tafsilotlarni taqdim etish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, yozma matnning har bir bandida (paragrafi) asosiy g'oya va yordamchi tafsilotlar bo'lishi bilan belgilanadi. O'z navbatida, paragrafdagi asosiy g'oyani bevosita yoki aniq ifodalash mumkin hamda mazmunning kerakli axborotga egaligi, mazmunli va berilgan mavzuga mos bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

2. Tashkiliy tuzilish (*Organization*) – yozuv shunchaki muallifning qog'ozga qalam tegizishi yoki g'oyalarni yozib olishi emas, balki ushbu g'oyalarni u qanday taqdim etishi yoki samarali ifoda eta olishi bilan bog'liq aspektidir. Yozma shakldagi fikrlar aniq, mantiqiy ketma-ketlikda yaxshi tashkil etilgan va izchil bo'lishi lozim, ya'ni yaxshi yozuv izchillik va uzviylik tamoyillariga asoslangan bo'ladi.

3. So'z tarkibi (*Vocabulary*) – talabadan yozma nutqda so'zlarini diqqat bilan tanlashni talab qiluvchi muhim aspekt, ya'ni muallif sifatida talabaning so'zlardan unumli foydalana olishi, so'z yasashni o'zlashtirib olishi, ayrim so'zlarni o'z o'rinlariga mos ravishda qo'llay

<sup>9</sup> Колбышева Ю.В. Некоторые особенности обучения письму на иностранном языке студентов неязыковых специальностей // Вопросы теории и практики. – 2014. – № 1-1(31). – С. 70–72.

<sup>10</sup> Heaton J.B. Writing English language tests. – New York: Longman Inc., 1989. – 192 p.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

olishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, talabdan deyarli katta hajmdagi lug'atni egallash talab etiladi, chunki uning yo'qligi yoki tor doirada cheklanganligi ham yozish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.

4. Tildan foydalanish (*Language use*) – grammatika va jumlar qurishni o'z ichiga oluvchi jihat, ya'ni talabalar kelishik, zamon, so'z tartibi, artikl, olmosh va yuklamalar kabi to'g'ri grammatikadan foydalanishlari kerak. Jumladan, talabalar jumlarini qurish qoidalarini ham bilishlari kerak.

5. Mexanika (*Mechanics*) – yozuvning texnik jihatlarini tavsiflash uchun ishlatiluvchi atama, ya'ni xatosiz yozish uchun talabalar imlo, tinish belgilari, bosh harflar va paragraflarni o'z ichiga olgan to'g'ri mexanikadan foydalana olishlari lozim. Natijada yaxshi mexanika matnini o'qishni osonlashtiradi va ko'proq o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi.

Jumladan, yuqorida tilga olingan aspektlarni to'liq yuzaga chiqarish maqsadida ingliz olimi J.Xarmer o'zining “Yozuvni qanday o'qitish kerak” (“*How to Teach Writing*”) nomli kitobida o'qituvchining yozish amaliyoti bo'yicha dars mashg'ulotlarida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan uch asosiy bosqichni ko'rsatadi: (1) talabalar yozish sabablarini tushuna olish; (2) talabalarga yozish uchun bir talay imkoniyatlarni taqdim eta olish; (3) talabalar yozma nutqlariga javoban foydali va mazmunli ko'rinishdagi qayta aloqa bildira olish.

Ma'lumki, chet tili ta'limida yozuvni o'rgatishda bir qator yondashuvlar tatbiq etilib kelinmoqda va ularning har biri o'z davrining shart-sharoitiga ko'ra amalda sezilarli darajada chet tili ta'limi rivojiga hissa qo'shdi. Jumladan, mazkur yondashuvlar orasida ikki asosiy tur nisbatan ommabop va samarali natijalarga erishishga zamin yaratdi:

— *Jarayonga asoslangan yondashuv* (Yaxshi matnlar talabalar tomonidan qanday yaratiladi?) – asosiy e'tibor yaratiladigan mahsulotga, ya'ni yozma nutq matniga emas, balki yozish jarayoniga qaratiladi va til o'rganuvchiga bilim va tafakkur vositasida matn bosqichma-bosqich tarzda yaratishga imkon beradi. Jumladan, ayni yondashuvda yozuv dinamik, o'zgaruvchan va takrorlanuvchi bosqichlardan iborat jarayon sifatida ko'riladi, bunda ma'no hosil qilish orqali bilim matnga aylantiriladi. Amerikalik nazariyotchi olimlar L.Flauer va J.Xeys fikriga ko'ra, ma'lum bir yozma nutq janrini ushbu yondashuv yordamida yaratishning quyidagi bosqichlari mavjud: (1) maqsadlarni belgilab olish; (2) g'oyalarni yaratish; (3) axborotni ifodalash; (4) maqbul tilni tanlash (usul va uslub);

(5) qoralama nusxani tayyorlash; (6) o'qib chiqish va qaytadan ko'rib chiqish; (7) tekshirib tuzatish va tahrirlash. Ayni yondashuvning asosiy kamchiliklaridan biri esa amaliy jarayonlarda har doim ham yozma mahsulot sifatiga yetarlicha e'tibor berilmadi, chunki u yozma nutqning “ravonlik jihatini aniqlikdan ustunroq qaralishiga” sababchi bo'ldi va yozuv jarayoni hamda yakunda yaratiladigan mahsulot (yozma nutq janri) o'rtasida “noto'g'ri dixotomiya” yaratdi.

— *Janr/Matnga asoslangan yondashuv* (Qanday vositalar yaxshi matn yaratishga yordam beradi?) – yuqorida qayd etilgan yondashuvdan farqli o'laroq, bu yondashuvda yaratiladigan mahsulot, ya'ni yozma nutq janri diqqat markazida bo'ladi va uni yaratishdan ko'zlangan maqsad ham hisobga olinadi. Demak, namunaviy matnlarning uslubi va mazmunini hamda ularning sotsiolingvistik vaziyatini (kontekst) tahlil qilish va ularga taqlid qilgan holda ma'lum bir turdagi yozma nutq matnini yaratish ushbu yondashuv turining asosini tashkil etadi. Shuningdek, yaratilayotgan yozma nutq janrlarning sxematik tuzilishini bilish til o'rganuvchilarga butun bir matn bo'ylab argumentlar oqimini boshqarishga yordam beradi. Shu sababli, amalda namuna sifatida olingan matnlar o'rganilayotgan yozma nutq turiga xos bo'lgan tarkibiy va lingvistik xususiyatlarni o'zida aks ettirishi lozim. Natijada talabalar muayyan muloqot turlariga doir til, matn tuzilishi va nutq (diskurs) amaliyotini o'zlashtira

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

oladilar. Ayni yondashuvga asoslanish, o'z navbatida, amalda talabalarga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: (1) yozuvda o'zlashtirishlari lozim bo'lgan zaruriy jihatlarni aniqlab olish; (2) matn tuzilmasidan xabardorlikni rivojlantirish; (3) yozma nutqni bayon etishning o'ziga xos jihatlardan foydalanishni rivojlantirishda ko'mak berish; (4) samarali matn mezonlarini qo'llashga imkoniyat yaratish.

Shu jumladan, ushbu yondashuv o'rganilayotgan chet tilida o'zlashtirish

ko'rsatkichlari va o'qish tajribasi kamroq bo'lgan talabalarni aniq yo'nalish va birinchi navbatda, yozma matnda foydalanish uchun kerak bo'lgan namunaviy til materiallari bilan ta'minlaydi. K. Haylendning qayd etishicha, janr/matnga asoslangan yondashuv quyidagi jihatlari sababli ham foydalidir:

- Ko'rsatmalar juda aniq bo'ladi, chunki yakuniy mahsulotga asosiy e'tibor qaratilgan bo'ladi.
- Janrga e'tibor tilga, matn tuzilishi va kommunikativ vaziyatlarga bir xilda diqqatni jamlashda zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratadi.
- Talabalarning yozma nutq janrlarini yozishdagi bevosita ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi.
- Talabalarning yozma nutq janrlarini yozishga oid ko'nikmalariga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganish darslarini talabalar hayoti bilan bog'lash, ular uchun mazmunli va tegishli yozish imkoniyatlarini taqdim etish zarurati yozuv kompetensiyasini o'qitish jarayonlarini tashkillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, L.P. Solonsovaning ta'kidlashicha, hozirda yozuvga, chet tili o'rganuvchilarining o'z fikrini yozma shaklda ifodalashga o'rgatishga bo'lgan munosabat tamomila o'zgardi. Ta'lim maqsadi sifatida yozuv barcha turdagi ta'lim muassasalari uchun dasturlarda va chet tilini o'rganishning barcha bosqichlarida mavjud. Bugungi kunda biz yozish ko'nikmalari keng talabga aylanganligi va zamonaviy dunyoda eng professional ahamiyatga ega bo'lgan maqomini olganligi bilan doimo duch kelmoqdamiz, chunki professional aloqalar uchun asosiy vositaga aylangan kompyuter aloqasi yozma muloqotni birinchi o'ringa chiqardi. Vaholanki, yozuvning amaldagi roli va o'rni chet tili o'qitishning o'ziga xos shartlari va maqsadlari bilan belgilanadi. Professor R. Milrud ham yozuvning mahsuldor (produktiv) tomoni chet tili darslarida hanuz yetarlicha o'rganilmadi, deb hisoblaydi.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yozuv insoniyat idrokining bosqichma-bosqich rivojlanish bosqichlarini o'zida aks ettiruvchi muhim manbadir. Yozuv kompetensiyasi, shu jumladan, har qanday tilda egallanishi murakkab bo'lgan nutq faoliyatining produktiv turi hisoblanadi va uni talab darajasida o'zlashtirish talabalardan uzoq vaqtni talab qiladi. Jumladan, yuqorida keltirilgan yozuv kompetensiyasi modellari, uning ko'nikma va malaka darajasida egallanishi lozim bo'lgan aspektlari, o'qituvchi tomonidan bu borada amalga oshiriluvchi chora-tadbirlar hamda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni buni tasdiqlaydi, shuning uchun, oliy ta'limda bo'lajak ingliz tili mutaxassislari sifatida talabalarning mazkur nutq faoliyati turini takomillashtirish amalda uning bugungi ta'lim maqsadi shaklidagi maqomi hamda raqamli texnologiyalar bilan o'zaro ajralmas integratsiyalashuviga bevosita bog'liqdir.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. <http://lex.uz//docs/-4545884>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 76 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <http://lex.uz//docs/-5013007>.
6. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2012. – 294 b.
7. Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. – Ташкент: Издательство «Фан ва технология», 2013. – 200 с.
8. Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва: МГЛУ, 2012. – 120 с.
9. Anderson L.W., Krathwohl D.R., Bloom B.S. A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom’s taxonomy of educational objectives. – New York, NY: Longman, 2001. – 336 p.
10. Beatty K. Teaching & researching: Computer-assisted language learning. – London: Routledge, 2013. – 304 p.
11. Beach R., Anson C., Kastman Breuch, L.-A., Reynolds T. Understanding and creating digital texts. – Washington, DC: Rowman and Littlefield, 2014. – 320 p.
12. Bloch J. Technology in the second language composition classroom. – Ann Arbor, MI: University of Michigan Press, 2008. – 260 p.
13. Bonk C.J., Graham C.R. (Eds.). Handbook of blended learning: Global perspectives, local designs. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006. – 624 p.
14. Brown H.D., Lee H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy (4th ed.). – New-York: Longman, 2015. – 688 p.
15. Dudeney G., Hockly N. How to teach English with technology. – Harlow: Pearson Education, 2007. – 192 p.